# Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

( 2021- yil yanvar-sentabr oylarida )

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 5679,8 mlrd.so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 113,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ( 92,9 %) ni tashkil etdi.




*mlrd. so‘m*




***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C***-*Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D***-*Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E***-*Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da




*FHI % da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 45,6 % ga, suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda 1,4 % ga shuningdek, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 25,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 16,0 % ga oshganligi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 89,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,

(yanvar-sentabr oylarida, % da)




### Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi,

mln. so‘mda

| Tumanlar nomi | 2020- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | FHI, % |
|---|---|---|---|
| G‘allaorol tumani | 14 040,2 | 17 772,2 | 80,2 |
| Forish tumani | 4 226,7 | 4 712,0 | 70,6 |
| Sharof Rashidov tumani | 25 919,7 | 19 617,4 | 48,0 |
| Zomin tumani | 18 962,7 | 13 430,2 | 44,9 |
| Jizzax shahri | 11 740,2 | 20 791,6 | 112,2 |
| Zafarobod tumani | 6 139,0 | 10 361,7 | 107,0 |
| Baxmal tumani | 1 435,1 | 1 940,3 | 85,7 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5274,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,9 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,

(yanvar-sentabr oylarida, % da)




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – 3,8 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 16,2 % ( 4,3 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 25,8 % (20,8 %) va quyi texnologiyalisi – 50,8 % ( 62,4 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 16,5 % ( 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 89,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 1,6 % ( 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 86,1 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 32,1 % ( 2020- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi  116,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % ( 2020- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan fizik hajmi indeksi 102,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,3 %( 2020- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 133,0 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 29,0 ming tonna kalava ip ( 2020- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 47,7 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

O‘simlik yog‘i (tozalangan)




Paxta tolasi




Yumshoq bug‘doy va spelta uni




Paxta linti




Paxta chigiti




Kalava ip




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar- sentabr | 2021- yil yanvar- sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t. | 48 844,0 | 47 296,9 | -1 547,1 |
| Paxta tolasi, t. | 20 645,0 | 31 083,0 | 10 438,0 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan), t. | 5 970,3 | 3 191,0 | - 2 779,3 |
| Paxta linti, t. | 1 717,0 | 2 810,5 | 1093,6 |
| Kalava ip, t. | 15 005,0 | 29 043,5 | 14 038,5 |

## Elektr, gaz, bug‘ bilan taminlash va havoni konditsiyalash

yanvar-sentabr oylarida

mlrd. so‘m







FHI
*% da*

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 249,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,4 % ini) tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,2 % ga oshganligi kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-sentabr oylarida, % da)

2020- y.







2021- y.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 179 681,2 | 194 382,4 | 14 701,2 |
| Boshqa bug‘ va issiq suv (issiqlik energiyasi),ming gkal | 5,8 | 12,1 | 6,3 |
| Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 42 229,6 | 54 624,1 | 12 394,5 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-sentabr oylarida*

mlrd. so‘m







FHI
*% da*

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 67,0 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-sentabr oylarida, % da)*

2020- y.







2021- y.

| Sanoat mahsulotlari | 2020- yil yanvar-sentabr | 2021- yil yanvar-sentabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m, | 24 305,3 | 52 550,8 | 28245,5 |
| Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar, mln. so‘m | 16 399,6 | 14 488,5 | -1911,1 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig‘ish, qayta ishlash va taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 18,2 % ga oshganligi kuzatildi, chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish bo‘yicha xizmatlar 35,0 % ga, pasayishi kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2524,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga mos davriga nisbatan 20,9 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 44,5 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 29,1 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 19,5 % ni, Forish tumani 7,4 % ni, Paxtakor tumani 6,9 % ni Arnasoy tumani 5,9 % ni hamda Zarbdor tumani 5,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida yuqori ko‘rsatkich G‘allaorol tumani ( 309,3 %), Zarbdor tumani ( 133,7 %), Arnasoy tumani ( 132,9 %), Paxtakor tumanlarida (122,1 %) va Forish tumani ( 122,1 %), qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

**Jizzax viloyati**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 2524,9 | 100,0 | 120,9 |

**Zomin**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 144,7 | 5,7 | 100,2 |

**Jizzax shahar**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 734,8 | 29,1 | 100,9 |

**Zarbdor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 147,5 | 5,8 | 133,7 |

**Arnasoy**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 149,3 | 5,9 | 132,9 |

**Zafarobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 56,1 | 2,2 | 102,1 |

**Baxmal**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 71,2 | 2,8 | 101,0 |

**Mirzacho‘l**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 54,5 | 2,2 | 100,2 |

**G‘allaorol**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 493,4 | 19,5 | 309,3 |

**Paxtakor**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 174,0 | 6,9 | 122,1 |

**Sharof Rashidov**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 140,7 | 5,6 | 100,5 |

**Forish**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 186,0 | 7,4 | 113,7 |

**Do‘stlik**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 130,6 | 5,2 | 87,5 |

**Yangiobod**

| Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|
| 42,1 | 1,7 | 72,5 |

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 29,0 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 11,7 % ni, Do‘stlik tumani 13,6 % ni, hamda Paxtakor tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahar (131,7 %) hamda Zafarobod tumanida (134,1 %) qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 642,6 | 100,0 | 100,4 |
| Zomin | 44,7 | 7,0 | 62,9 |
| Jizzax shahar | 186,2 | 29,0 | 131,7 |
| Zarbdor | 75,4 | 11,7 | 122,1 |
| Arnasoy | 26,7 | 4,2 | 104,7 |
| Zafarobod | 21,1 | 3,3 | 134,1 |
| Baxmal | 36,5 | 5,7 | 102,1 |
| Mirzacho‘l | 12,3 | 1,9 | 104,4 |
| G‘allaorol | 42,5 | 6,6 | 91,8 |
| Paxtakor | 52,9 | 8,2 | 109,6 |
| Sharof Rashidov | 26,6 | 4,1 | 68,1 |
| Forish | 17,0 | 2,7 | 86,6 |
| Do‘stlik | 87,6 | 13,6 | 78,3 |
| Yangiobod | 13,1 | 2,0 | 107,1 |

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib, 29,1 % ni, shuningdek, G‘allaorol tumani 24,0 % ni, Forish tumani 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich G‘allaorol tumaniga to‘g‘ri kelib, 398,1 % hamda Paxtakor tumanida 128,5 % qayd etildi.

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 1882,3 | 100,0 | 130,0 |
| Zomin | 100,0 | 5,3 | 136,4 |
| Jizzax shahar | 548,7 | 29,1 | 93,5 |
| Zarbdor | 72,1 | 3,8 | 148,5 |
| Arnasoy | 122,6 | 6,5 | 141,2 |
| Zafarobod | 35,0 | 2,0 | 89,2 |
| Baxmal | 34,7 | 1,8 | 99,9 |
| Mirzacho‘l | 42,2 | 2,2 | 99,0 |
| G‘allaorol | 450,9 | 24,0 | 398,1 |
| Paxtakor | 121,1 | 6,4 | 128,5 |
| Sharof Rashidov | 114,0 | 6,1 | 113,1 |
| Forish | 168,9 | 9,0 | 117,4 |
| Do‘stlik | 43,0 | 2,3 | 114,7 |
| Yangiobod | 29,1 | 1,5 | 63,3 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2056,7 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 36,2 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

2021- yilning yanvar- sentabr oylarida

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Jizzax viloyati. | 5679,8 | 100,0 | 113,8 |
| Jizzax shahar | 1832,6 | 32,3 | 102,2 |
| Arnasoy | 184,7 | 3,3 | 105,8 |
| Baxmal | 72,0 | 1,3 | 110,2 |
| G‘allaorol | 635,1 | 11,2 | 114,0 |
| Sharof Rashidov | 265,5 | 4,7 | 108,2 |
| Do‘stlik | 569,1 | 10,0 | 102,9 |
| Zomin | 242,4 | 4,3 | 102,2 |
| Zarbdor | 252,6 | 4,4 | 100,2 |
| Zafarobod | 893,8 | 15,7 | 136,8 |
| Mirzacho‘l | 120,6 | 2,1 | 100,5 |
| Paxtakor | 296,2 | 5,2 | 102,0 |
| Forish | 273,0 | 4,8 | 107,8 |
| Yangiobod | 42,2 | 0,7 | 60,0 |

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod ( 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 136,8 %), G‘allaorol ( 114,0 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi, % da

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati, % da




**Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 32,3 % ni) hamda Do'stlik ( 10,0 %), G'allaorol ( 11,2 %) va Zafarobod ( 15,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Baxmal (1,3 %) hamda Yangiobod (0,7 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri ( 10058,0 ming so‘m), Do‘stlik ( 8499,6 ming so‘m), Zafarobod ( 17555,9 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1774,7 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax shahrida 4033,1 ming so‘mni, G‘allaorol tumanida 2795,7 ming so‘mni, Arnasoy tumanida 3188,9 Paxtakor tumanida 2279,7 ming so‘mni, Do‘stlik tumanida 1950,8 ming so‘mni, Forish tumanida 1970,7 ming so‘mni, tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ming. so‘m

| Hudud | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Jizzax viloyati | 3992,2 | 1774,7 |
| Zomin | 1438,3 | 858,4 |
| Jizzax shahar | 10058,0 | 4033,1 |
| Zarbdor | 2839,1 | 1657,2 |
| Arnasoy | 3945,8 | 3188,9 |
| Zafarobod | 17555,9 | 1101,8 |
| Baxmal | 447,5 | 443,0 |
| Mirzacho‘l | 2276,7 | 1029,7 |
| G‘allaorol | 3598,4 | 2795,7 |
| Paxtakor | 3881,6 | 2279,7 |
| Sharof Rashidov | 1161,3 | 615,2 |
| Forish | 2892,6 | 1970,7 |
| Do‘stlik | 8499,6 | 1950,8 |
| Yangiobod | 1466,4 | 1463,6 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub’yektlari tomonidan 2828,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,8 % ni tashkil etdi.






Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik ( 10,5 %) tumanlarida hamda Arnasoy tumanida ( 40,4 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2021- yil 1-oktabr holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3333 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 053 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,6 % ) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 667 tasi ( 20,0 %), G'allaorol tumaniga 321 tasi ( 9,6 %) to'g'ri kelmoqda.




2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 628 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 143 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 22,8 %) Jizzax shahrida, 81 tasi (12,9 %) Sharof Rashidov tumanida, 80 tasi (12,7%) G‘allaorol tumanida, 52 tasi (8,2 % ) Zarbdor tumanida tashkil etildi.

## 2021- yil yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasidagi ko‘rsatkichlar

RAQAMLAR:

- Mahalliylashtirish dasturidagi loyihalar soni 62 ta
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2329,3 mlrd. so‘m.
- Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport hajmi 30,1 mln. AQSH.dollar.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida 62 ta loyiha bo‘yicha 2329,3 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lib, 30,1 mln. AQSH. dollarlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 1028 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

### Ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi (mlrd.so‘mda.)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2329,3 mlrd. so‘mni tashkil qildi. O‘z navbatida mazkur 2020-2021- yillarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni hajmini ko‘rishimiz mumkin.



## 2021-yil yanvar- sentabr oylarida mahalliylashtirish dasturining asosiy ko‘rsatkichlari

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 62 ta loyiha ( 2329,3 mlrd. so‘mlik mahsulot) amalga oshirilgan bo‘lib, Jizzax shahrida 32 ta ( 853,5 mlrd. so‘m) G‘allaorol tumanida 5 ta ( 520,1 mlrd.so‘m), Zafarobod tumanida 1 ta ( 698,4 mlrd,so‘m), korxonalarga to‘g‘ri keladi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksporti ham 2021- yilning tegishli davrida 30099,9 ming. AQSH. dollarni tashkil etdi. O‘z navbatida, eksportning eng ko‘proq qismi Jizzax shahriga ( 22533,3 ming. AQSH. dollar), ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 1028 ta yangi ish o‘rini yaratildi.

**2021- yil yanvar- sentabr oylarida mahalliylashtirish dasturi doirasida hududlar kesimida amalga oshirilgan korxonalar soni, birlikda**




Sanoat statistikasi bo‘limi

Tel.: (72-221-51-13)